


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-igʻtisodiy, innovatsion texnik,
fan va taʼlimga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2026-YIL

SENTYABR / 9-SON, III-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.us/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ
ЦЕНТР НАУКИ И ТЕХНИКИ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

A METHOD FOR INTEGRATING HIGHER EDUCATION INSTITUTION INFORMATION RESOURCES BASED ON MOBILE SOFTWARE.....	9
Shukirillayeva Mexriban	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA RAQAMLI PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI: BUXORO VILOYATI MISOLIDA	15
Qudratov Bahodir G'aybullaevich	
SCENE ACTIVITY-AWARE CAMERA HEALTH MONITORING FOR STATIONARY CCTV SYSTEMS.....	19
Abdulazizxon Axmedov Ganijon o'g'li	
SUTCHILIK FERMER XO'JALIKLARIDA OZUQA EKINLARI TUZILMASINI CHIZIQLI DASTURLASH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH VA 2030-YILGACHA SUT HAMDA OZUQA EHTIYOJI PROGNOZI	26
Ibodullayev Doston Sobirjon o'g'li	
RESPUBLIKADA KOMUNAL XO'JALIKLARNI BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	36
Mardanova Mohidil Otabek qizi	
O'ZBEKISTONDA MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	42
Fayziyev Farrux Abdullaxojayevich	
TUYAMO'YIN O'ZAN SUV OMBORIDAN SUV OLUVCHI O'NG QIRG'OQ MAGISTRAL KANALINING LOYQA BOSISHINING OLDINI OLIH CHORA-TADBIRLARI VA UNING AHAMIYATI	50
Ro'zmetov Xursandbek Hayitboyevich	
BUXORO VILOYATIDA TURISTIK XIZMATLAR BOZORIDA REKREATSIYA OBYEKTLARIDAN FOYDALANISHDA TALABNING O'ZGARISHI TAHLILI.....	57
Urunova Dilobar Baxtiyorovna	
TRANSPORTNING MINTAQALAR IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH: METODOLOGIYA VA VOSITALARI	64
Omonova Sug'diyona Mamadavidovna	
TURLI SUG'ORISH TARTIBLARINING KUZGI BUG'DOY VA DUKKAKLI EKINLAR HOSILDORLIGI, TUPROQNING MELIORATIV HOLATI HAMDA AGROFIZIKASIGA TA'SIRI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA) .	69
Xalilova Ma'mura Ravshanovna	
ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ЭКСТРАКЦИИ ХВОЙНЫХ РАСТЕНИЙ МЕТОДОМ ПАРОДИСТИЛЛЯЦИИ	73
Ёдгорова Маъмура Орифовна	
YER UCHASTKALARINING KADASTR QIYMATINI BAHOLASHDA TUPROQ BONITIROVKASI VA GEOAXBOROT TIZIMLARIDAN FOYDALANISH	78
Izatov Elmira Najmidinovich	
РАЦИОНАЛЬНЫЙ ВЫБОР ПРЕКУРСОРОВ ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ 2D-МОК С РАЗВИТОЙ ПОРИСТОЙ СТРУКТУРОЙ.....	83
Рахимов Бекзод, Адизов Бобир, Коракулова Нодира	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUTUR YETKAZMASDAN TEKSHIRISH SOHASINI STANDARTLASHTIRISH TIZIMINI ISO/TC 135 XALQARO TEXNIK QO'MITASI STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: STQ-28 MILLIY TEXNIK QO'MITASINING ROLI	88
Axmedov G'ayratjon Mahmudjonovich	
FOG-CLOUD HISOBLASH MUHITIDA VAZIFALARNI O'TKAZISH VA RESURLARNI TAQSIMLASHNING ARCHERY PUFFERFISH OPTIMIZATION ALGORITMIGA ASOSLANGAN GIBRID MODEL.....	93
Ulugbek Muxammadjonov	



PV/T HAVO KOLLEKTORI BILAN JIHOZLANGAN QUYOSH QURITGICHIDA POMIDORNI QURITISH KINETIKASINI UCH O'LCHAMLI SONLI MODELLASHTIRISH.....	104
Ibragimov Umidjon, Xo'jarova Aziza	
YASHIL MOLIYA VA IQLIM RISKLARI: XALQARO TAJRIBA HAMDA O'ZBEKISTONDA BARQAROR MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA SUG'URTA HIMOYASI MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: DEPOZIT BAZASI VA KREDIT RISKLARINI TABAQALASHTIRILGAN HOLDA SUG'URTALASH	122
Tog'ayniyazov Shohzodbek	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINING RAQAMLI BREND POZITSIYASINI BAHOLASH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI.....	130
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi	
NEFT-GAZ SOHASI IXTISOSLIK FANLARINI INTEGRATIV O'QITISH ASOSIDA TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	139
Yaminov Feruzjon Fayzullo o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KREDIT RISKLARINI BAHOLASH MODELINI ISHLAB CHIQISH	144
Yeldashbayev Ikrombek Maxset o'g'li	
INNOVATSION EKOTIZIMNING IQTISODIY MOHIYATI VA BOSHQARUV USULLARI	149
Turg'unov Behzodbek, Karimov Muzaffar, Maraimova Umida	
ЗЕЛЁНАЯ БУХГАЛТЕРИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ СТАНОВЛЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	153
Камолова Феруза Кахрамоновна	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ГОСУДАРСТВЕННОМ ФИНАНСОВОМ КОНТРОЛЕ: ФИНАНСОВО-ПРАВОВЫЕ РИСК И НАПРАВЛЕНИЯ РЕГУЛИРОВАНИЯ.....	159
Сунатуллаева Нозима Ботир кизи	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR INVESTITSION SIYOSATI METODOLOGIYALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON INVESTITSION SIYOSATIGA TATBIQ QILISH	168
Bekmurodova Gavhar Adham qizi	
SOG'LIQNI SAQLASH BYUDJET DASTURLARI SAMARADORLIGINI INTEGRAL BAHOLASH: DBSI INDEKSI VA AMALIY APROBATSIIYA.....	177
Abdullajonov Umidjon G'ulomjon o'g'li	
KONVERTER CHANGINI KOMPLEKS GIDROMETALLURGIK QAYTA ISHLASHDA VISMUTNI AJRATIB OLISH IMKONIYATLARI.....	183
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li	
KOMPLEKS SONLAR NAZARIYASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI: ALGEBRAIK, TRIGONOMETRIK VA KO'RSATKICHLI SHAKLLAR HAMDA ULARNING KOMPLEKS TAHLILDAGI O'RNI	188
Rayimov Doniyor G'afurovich	
KISLOROD MIQDORI OPTIMAL BO'LGAN Y-123 KUPRATIDA CU-O-CU BOG'I EGILISH BURCHAGINING KRITIK HARORATGA TA'SIRI.....	194
To'rayev Ozodjon G'ayrat o'g'li	
HARAKATLANUVCHI TARKIB AVTOAJRATGICH QURILMALARINI TA'MIRLASH VA TEXNIK NAZORAT QILISH TIZIMI.....	201
Sadikov Sherdil Saibjanovich	
MASSIVLARNI PUFAKCHA USULIDA TARTIBLASHNING PYTHON DASTURLASH TILIDAGI TALQINI ...	204
Fathiddinov Saidma'ruf Lazizxo'ja o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH.....	209
Sattarov Tulkin Abdixalilovich	



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH

Sattarov Tulkin Abdixalilovich

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

ORCID: 0009-0001-3779-4508

E-mail: sattarovozfdtek@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy tizimi yoritilgan. Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning hozirgi holati tahlil qilingan. Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy-kredit qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish samaradorligi, shaxsiy ehtiyoj, samaradorlik, ishonchlilik, resurslarga bo'lgan ehtiyojning dinamik o'zgarishi, baholash, to'lov qobiliyati.

Аннотация. В статье рассмотрена современная система финансовой поддержки сельскохозяйственных предприятий. Проанализировано современное состояние финансовой поддержки сельскохозяйственных предприятий. Разработаны конкретные предложения и рекомендации по совершенствованию системы финансовой поддержки сельскохозяйственных предприятий.

Ключевые слова: финансово-кредитная поддержка, эффективность предоставления услуг, индивидуальные потребности, эффективность, надежность, динамические изменения потребности в ресурсах, оценка, платежеспособность.

Abstract. This article examines the modern system of financial support for agricultural enterprises. The current state of financial support for agricultural enterprises is analyzed. Specific proposals and recommendations are developed to improve the system of financial support for agricultural enterprises.

Keywords: financial and credit support, service efficiency, individual needs, efficiency, reliability, dynamic changes in resource requirements, assessment, solvency.

KIRISH

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi korxonalari, xususan, fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning zamonaviy tizimi 2000-yillarning boshlarida shakllangan tendensiyalar bilan ko'p jihatdan o'xshash xususiyatlarga ega.

Shu bois moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari o'tmishdagi tajribalardan, xususan, byudjet mablag'lari hisobidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash sohasida yo'l qo'yilgan kamchiliklardan ko'p saboq oldilar. O'sha davrda O'zbekiston fermer xo'jaliklari duch kelgan muayyan tarixiy va iqtisodiy vaziyatga mos keluvchi bozorga yo'naltirilgan davlat tizimi, bizning fikrimizcha, fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda ularga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklarining samarali rivojlanishini yetarli darajada ta'minlay olmadi.

Bunga misol sifatida zamonaviy fermer xo'jaliklari va ularga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklarining rivojlanishini tahlil qilish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalalari iqtisodiy adabiyotlarda muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala, avvalo, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavsumiy xususiyati, moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi, ishlab chiqarish siklining uzoqligi, tabiiy-iqlimiy omillarga bog'liqlik hamda fermer xo'jaliklarining kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari bilan izohlanadi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Jumladan, klassik iqtisodiy nazariyada kredit kapital harakatining muhim shakli sifatida qaralib, uning iqtisodiy subyektlar o'rtasida vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni qayta taqsimlashdagi roli asoslab berilgan. Zamonaviy moliyaviy nazariyada esa kredit iqtisodiy o'sish, investitsion faollik va ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlovchi muhim

moliyaviy instrument deb qaraladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar – A. Vahobov, N. Malikov, B. Burxonov va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida moliya, kredit, davlat moliyaviy qo'llab-quvvatlashi, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan samarali foydalanish masalalari tadqiq etilgan. Ularning ilmiy yondashuvlarida moliyaviy resurslarning iqtisodiy subyektlar faoliyati barqarorligini ta'minlashdagi roli, moliyaviy munosabatlarni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari hamda kredit resurslaridan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasining asosini qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning nazariy va amaliy jihatlarini tizimli o'rganish, mavjud moliyaviy mexanizmlarning samaradorligini baholash hamda ularni takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy ta'minoti, kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari, moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatiga ta'sir etuvchi omillar o'zaro bog'liqlikda tahlil qilindi.

Tadqiqotda tizimli va kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, iqtisodiy tahlil, dinamik qatorlarni tahlil qilish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil orqali qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning turli shakllari va ularning rivojlanish tendensiyalari o'rganildi. Statistik tahlil asosida kreditlash va moliyaviy qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichlarining o'zgarishi hamda ularning tarkibiy nisbatlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'sishini ta'minlash bilan bog'liq vazifalarni asosan tijorat banklari hal etishi mumkin.

Ma'lumki, mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda fermer xo'jaliklarining ulushi umumiy qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmining qariyb 80–90 foizini tashkil etgan.

ATB «Agrobank» [1] o'zining hududiy va tuman bo'linmalari (filiallari) orqali 2010-yil boshlaridan buyon fermer xo'jaliklariga o'n minglab kreditlar ajratib, ularning umumiy hajmi o'nlab milliard so'mni tashkil etgan. Bunda ATB «Agrobank» [1]ning mamlakat kredit tizimi tomonidan qishloq xo'jaligining barcha toifadagi subyektlariga ajratilgan umumiy kredit portfelidagi ulushi 80–96 foizni tashkil etgan.

Biroq, shuni alohida ta'kidlash lozimki, miqdoriy va hajmiy ko'rsatkichlar dinamikasi bilan tavsiflanuvchi ushbu jarayonda qishloq xo'jaligidagi kichik mijozlarga xizmat ko'rsatish samaradorligi masalalari ikkinchi darajaga tushib qolgan.

ATB «Agrobank»ning mazkur toifadagi qarz oluvchilarning har biri bilan ishlash uchun sarflaydigan vaqt va mablag'lari yirik mijozlar bilan ishlashga sarflanadigan xarajatlardan deyarli farq qilmaydi. Biroq, berilgan kreditlar bo'yicha foiz ko'rinishida olinadigan daromadlar o'zaro taqqoslab bo'lmaydigan darajada farq qiladi.

Agar ATB «Agrobank»ning moliyaviy salohiyati yuqori bo'lgan mijozlari o'nlab million so'm miqdorida kreditlardan foydalansalar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklariga berilgan kreditlar bo'yicha o'rtacha qarzdorlik hatto 5–10 mln so'mga ham yetmaydi. ATB «Agrobank» tomonidan daromad keltiruvchi boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatilishi ehtimolini hisobga olgan taqdirda ham, bunday faoliyat uning ushbu mijozlar ustunlik qiladigan ko'plab hududiy, xususan, tuman filiallari uchun oldindan zararli hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, ushbu muammoda yirik fermer xo'jaliklariga xos bo'lgan o'ziga xos «me'yordan ortiqlik» namoyon bo'lgan. Ya'ni, ular o'z «ulushini» boshqa, nisbatan kichik va dastlab samarasiz ko'rinadigan, aniqrog'i, raqobatbardoshligi past bo'lgan fermer xo'jaliklari bilan bo'lishishni istamaganlar.

Yuqorida bayon etilgan vaziyatda ATB «Agrobank» tomonidan kichik fermer xo'jaliklari bilan bog'liq ulkan operatsion xarajatlarni qisqartirish imkoniyati ma'lum darajada oldindan ko'zda tutilgan.

Bu, ayniqsa, kichik fermer xo'jaliklarini kreditlash dasturlarini amalga oshirishda ATB «Agrobank» kredit resurslarini keng miqyosda jalb qilishdan voz kechish, shu tariqa mazkur yo'nalishdagi xizmatlarning bir qismini ATB «Mikrokreditbank»ka berish bilan bog'liq edi.

ATB «Mikrokreditbank» hududiy bo'linmalarini kengaytirib, yangi mijozlarni tizimli ravishda jalb qilmoqda hamda ularga maqbul kredit imtiyozlarini belgilamoqda. Bunday mijozlar qatoriga kichik fermer xo'jaliklari, shaxsiy yordamchi xo'jalik yurituvchi fuqarolar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning boshqa subyektlari kiradi.

Mikrokreditbank so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashga yo'naltirilgan faoliyatini ham rivojlantirib, korxona huzurida yordamchi xo'jalik tashkil qilish yoki ijaraga olingan yer uchastkalarida mijozlar – hamkorlarning ehtiyojlarini yoki shaxsiy iste'mol ehtiyojlarini qondirish uchun zarur qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'ymoqda.

Masalan, pomidor mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi korxonalari tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan komponentlarni bevosita ijaraga olingan yer uchastkalarida yetishtirishni yo'lga qo'ymoqdalar. Bunday xo'jalik subyektlari soni yildan-yilga ortib bormoqda.



Shunday qilib, qishloq joylarida ATB «Agrobank»ning foydalanilmayotgan salohiyati yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu holat ATB «Mikrokreditbank» tomonidan dehqon va fermer xo'jaliklarini to'g'ridan-to'g'ri kreditlash hajmining ortib borayotgani, ayni paytda ATB «Agrobank» tomonidan ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmining qisqarayotgani bilan ham tasdiqlanadi.

Yer maydoni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy-texnik salohiyati yuqori bo'lgan yirik fermer xo'jaliklari bank resurslari ajratilganda bankning bu bilan bog'liq joriy xarajatlarini sezilarli darajada tejaydi. Ayrim hollarda esa ular bank bo'linmasi faoliyatini optimallashtirishga, jumladan, ixtisoslashtirishga ham imkon beradi. Bizning fikrimizcha, bu holat har doim ham samarali hisoblanmaydi.

Shuningdek, Xalq banki, Turonbank, BRB va boshqa banklar ham qishloq xo'jaligi korxonalarini kreditlashni boshladilar.

Fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan kreditlash natijalari 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasidan qishloq xo'jaligi korxonalariga ajratilgan kreditlar to'g'risida MA'LUMOT

№	Hududlar nomi	Moliyalashtirilgan		Shundan:				
		QXK soni	summa	Agrobank	Xalq banki	MKB	BRB	Turon-bank
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	45 451	137 789	46 977	54 675	35 553	0	585
2	Andijon viloyati	7 049	182 987	81 017	66 754	34 512	0	705
3	Buxoro viloyati	5 512	155 918	74 645	39 806	40 861	0	606
4	Jizzax viloyati	6 030	168 761	56 550	62 605	49 607	0	0
5	Qashqadaryo viloyati	11 571	240 576	75 196	91 820	71 845	500	1 216
6	Navoiy viloyati	4 654	113 664	60 600	21 985	30 218	0	861
7	Namangan viloyati	3 754	117 615	58 276	34 904	21 283	0	3 153
8	Samarqand viloyati	9 773	262 380	85 274	110 376	50 575	15 000	1 155
9	Sirdaryo viloyati	3 739	120 022	46 236	43 302	13 871	5 600	11 014
10	Surxondaryo viloyati	9 478	258 977	96 678	76 056	69 378	0	16 865
11	Toshkent viloyati	7 228	208 651	85 915	94 401	28 117	0	218
12	Farg'ona viloyati	8 129	217 330	85 421	86 166	41 389	0	4 354
13	Xorazm viloyati	5 658	175 524	82 427	47 683	30 713	0	14 700
Jami		128 026	2 360 193	935 210	830 531	517 922	21 100	55 430

Izoh: Jadvaldagi raqamlar taqdim etilgan manbadagi ko'rsatkichlar asosida saqlandi.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirishda yetakchi o'rinni **ATB «Agrobank» — 935 mlrd so'm**, ikkinchi o'rinni **Xalq banki — 830,5 mlrd so'm**, uchinchi o'rinni esa **«Mikrokreditbank» — 518 mlrd so'm** egallagan. Shuningdek, boshqa banklar, jumladan, **Turonbank va Biznesni rivojlantirish banki** tomonidan ham kreditlar ajratilgan.

Shu maqsadlarda milliy amaliyot uchun uning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'plab mamlakatlarda qo'llanilayotgan fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash sxemasi maqbul hisoblanadi.

Moliyaviy instrumentning elementi sifatida tovar-veksel mexanizmi asosida kreditlashni joriy etish mumkin. Mazkur mexanizm fermer xo'jaliklarini urug'lik, mineral o'g'itlar, qishloq xo'jaligi inventarlari, o'simliklarni himoya qilish vositalari va



boshqa moddiy resurslar bilan ta'minlashda o'zaro bog'liq hamda tashkiliy-tizimli yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

Shu tariqa, fermer xo'jaliklari o'zlarining haqiqiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda resurslarni yetkazib beruvchi korxonalardan kredit asosida zarur moddiy resurslarni xarid qiluvchi potensial xaridorlar sifatida ishtirok etishlari mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi korxonalarining barqaror faoliyat yuritishi va ishlab chiqarish salohiyatini oshirishda kredit resurslaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavsumiyligi, tabiiy-iqlim omillariga bog'liqligi, aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi hamda moliyaviy resurslarning cheklanganligi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi. Maqolada keltirilgan tahlillar asosida qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning amaldagi tizimida moliyaviy resurslarning hajmi bilan bir qatorda, ulardan foydalanish samaradorligi va korxonalarining individual ehtiyojlarini hisobga olish masalasi ham muhim ekanligi aniqlandi.

Tahlil natijalari qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun bank kreditlaridan foydalanish imkoniyatlari kengayib borayotganini ko'rsatsa-da, kichik hajmdagi kreditlarni ajratishda banklarning operatsiya xarajatlari nisbatan yuqori bo'lishi, kredit oluvchilarning moliyaviy holati va to'lov qobiliyatini baholashdagi murakkabliklar moliyaviy xizmatlarning samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu munosabat bilan moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimida nafaqat kredit mablag'larini ajratish hajmini oshirish, balki ularni korxonalarining moliyaviy ehtiyojlari, ishlab chiqarish sikli va to'lov qobiliyatiga moslashtirish muhim hisoblanadi.

Shu asosda qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Qishloq xo'jaligi korxonalarining individual moliyaviy ehtiyojlarini baholash mexanizmini joriy etish.
2. Kreditlash muddatlarini qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sikliga moslashtirish.
3. Kichik hajmdagi kreditlarni berishda operatsiya xarajatlarini kamaytirish.
4. Qishloq xo'jaligida tovar-kredit mexanizmlarini kengaytirish.
5. Moliyaviy qo'llashni korxonaning moliyaviy barqarorligi bilan bog'lash.
6. Qishloq xo'jaligi korxonalarini uchun differensial moliyaviy mahsulotlarni shakllantirish.
7. Qishloq xo'jaligi korxonalarining kreditga layoqatligini baholash tizimini takomillashtirish.
8. Moliyaviy resurslarning samaradorligi monitoring tizimini joriy etish.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning barqaror rivojlanishi faqat moliyaviy resurslar hajmini ko'paytirish bilan emas, balki ularni korxonalarining real ehtiyojlariga mos ravishda taqsimlash, kreditlash jarayonining operatsiya xarajatlarini kamaytirish, to'lov qobiliyatini hisobga olish va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan ta'minlanadi. Bunday yondashuv qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ishlab chiqarish faoliyatini uzluksiz moliyalashtirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun zarur moliyaviy shart-sharoitlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Fermer xo'jaliklarining yangi sifat bosqichiga o'tishi jarayonida resurslarni moliyaviy resurslarning turli shakllariga transformatsiya qilish qishloq xo'jaligining barcha bo'g'inlarida qulay iqtisodiy sharoitlarni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-martdagi «Zamonaviy bank «Agrobank»ni tashkil etish to'g'risida»gi PQ-1084-son qarori. <https://lex.uz/docs/-1462557>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 29-martdagi «Ochiq aksiyadorlik tijorat banki «Mikrokreditbank»ning kapitallashuv darajasini oshirishga qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PP-1945-son qarori. (*O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami*, 2013-y., 14-son, 177-modda).
3. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: darslik. – Toshkent: «Sharq», 2010.
4. Malikov T.S. Moliya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: «Iqtisod-Moliya», 2019.
5. Burxonov B.B. Korxonalar moliyasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: «Iqtisod-Moliya», 2018.
6. «Chakana bank biznesini rivojlantirish» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent – Moskva, 2007. 134-b.
7. O'zbekiston Fermerlari kengashi huzuridagi Fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi materiallari.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100